


## **XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.


### **Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni**

*(1 oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda)*



**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Korxona va tashkilotlar soni**  
(2024 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Yuridik shaxs:**

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

*mas'uliyati cheklangan jamiyat,  
ming birlik*



*xususiy korxona,  
ming birlik*





**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

#### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**


(1 oktabr holatiga ko'ra)



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga (26 880 ta) nisbatan 3 037 taga ko'payganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 6 989 tadan 8 780 taga (o'sish 1 791 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 972 tadan 3 332 taga (o'sish 360 taga), tashish va saqlash – 1501 tadan 2376 taga (o'sish 875 taga).

## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024-yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 147 ta bo‘lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 134 ta;
- yirik korxonalar 13 ta.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 26 475 taga yetib, 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 112,0 foizni tashkil etdi (23 640 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 33,1 foiz, sanoat – 14,5 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 12,4 foiz, qurilish – 8,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 8,1 foiz, tashish va saqlash – 8,7 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,8 foiz, boshqa turlari – 9,9 foiz.

## Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni**

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Aksiyadorlik jamiyat:**


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(yanvar-sentabr oylarida, ming birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
(2024 yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2024 yilning yanvar-sentabr oylarida 4 250 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3 507 ta, xususiy korxonalar 147 ta, oilaviy korxonalar 492 ta va boshqalar 104 tani tashkil etdi.

Oʻzbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan qishloq xoʼjaligini rivojlantirishning chuqur oʼylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini toʼliq taʼminlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yoʼnalishlardan biriga aylandi.

**Qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligi faoliyati bilan shugʼullanayotgan  
korxona va tashkilotlar tarkibi**  
(1 oktabr holatiga koʼra)



**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**


**Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni  
(2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**



2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 847 nisbatan 90,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 90,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,6 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 89,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,0 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 110,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 111,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,9 %) o‘sishidir.

**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona  
va tashkilotlar soni**  
(1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 389 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 89,8 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilga nisbatan 81,5 foizga (jami qurilishdagi ulushi 50,5 foiz), fuqarolik ob’ektlarini qurish 114,1 foizga (jami qurilishdagi ulushi 22,3 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaring 91,0 foizga (jami qurilishdagi ulushi 27,2 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 780 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,4 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan 91,5 foizga (jami savdodagi ulushi 60,7 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan 27,2 foizga (jami savdodagi ulushi 95,9 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlashning o‘tgan yilga nisbatan 98,0 foizga (jami savdodagi ulushi 12,1 foiz) tashkil etdi.

**Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

- Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

784



- Yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash

17



- Yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

8




**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 148 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,0 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar 96,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 82,5 %), yashash bo‘yicha xizmatlarning 100,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 17,5 %) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**



2024 yil 1 oktabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 344 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,0 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 150,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,5 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 92,2 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,7 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 107,5 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,6 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 100,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 89,5 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,5 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 106,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,9 foiz) o'sgan.

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Oilaviy korxonalar soni**  
(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 4 253 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 229 taga yoki 105,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 973 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85 taga yoki 97,2 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 492 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga yoki 107,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024 yil 1 oktabr holatiga ko'ra 28 952 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 156 taga yoki 108,0 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 812 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 496 ga yoki 97,7 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 507 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 203 taga yoki 94,5 foizga kamaygan.




**Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi**

## Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘lmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rshimiz mumkin.


### Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 545 tani tashkil etib, ulardan 349 tasi yoki 64,0 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 52 taga yoki 117,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 85 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni**

(2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

(ijtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
<b>Jami</b>	<b>285</b>	<b>322</b>	<b>378</b>	<b>297</b>	<b>349</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	21	30	33	16	20
sanoat	122	130	141	113	108
qurilish	28	32	31	25	27
savdo	60	72	102	91	119
tashish va saqlash	6	5	8	10	14
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	21	23	26	18	24
axborot va aloqa	1	1	5	3	3
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	5	7	7	4	5
boshqa turlar	21	22	25	17	29

**Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiylaysi**

*Buxoro viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni  
(2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo‘shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>349</b>	<b>142</b>	<b>207</b>

Buxoro shahri 186 63 123


Kogon shahri 15 8 7

*tumanlar*

Buxoro	29	17	12
Vobkent	8	5	3
Jondor	7	5	3
Kogon	25	12	13
Olot	16	1	15
Peshko‘	5	2	3
Romitan	14	7	7
Shofirkon	12	7	5
Qorako‘l	13	5	8
Qorovulbozor	6	2	4
G‘ijduvon	13	8	5

**Korxona va tashlilotlar  
faoliyatining umumiy tavsiyi**


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
*(2024 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)*




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 186 ta (umumi miqdoridagi ulushi 53,3 %), Kogon tumani 25 ta ( 7,2 %), Olot tumani 16 tani ( 4,6 %), Kogon shahar 15 ta (4,3 %), Buxoro tumani 29 ta ( 8,3 %), hamda Romitan tumanlarida 14 tani (4,0 %) tashkil etadi.

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

### **Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni (2024 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**



### **Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2024 yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)**



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (8,9 %), G’ijduvon (17,3 %), Buxoro (7,7 %), Romitan (7,3 %), Peshko‘ (2,0 %), Kogon (4,3 %), Jondor (6,5 %), Vobkent (8,1 %), Shofirkon (13,0 %), Qorako‘l (4,7 %), Olot (13,6 %), Qorovulbozor (1,2 %) tumanlari va Kogon shahar (5,3 %), ulushiga tegishli.

## **Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsiyi**

### Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma’lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyat tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko‘rsatmayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan, moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan-** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to‘grisidagi yozuv kiritilgandan so‘ng bu haqda davlat statistika organlariga ma’lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi** – ma’lum bir davr oralig‘ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiyl tavsifi